

ABDULLA QAHHORNING “BEMOR” HIKOYASI TAHLILI

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi ¹¹ Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.pardaboyevaadiba@gmail.comMAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:28.04.2025

Revised: 29.04.2025

Accepted:30.04.2025

KALIT SO'ZLAR:

Sotiboldi, baxshi,
shoir, kasallik, mulla,
tabib, shifoxona, pul,
qashshoqlik,
ma'naviyat, bilimsizlik.

Ushbu maqolada Sotiboldi va uning oilasining tragediyasi orqali jamiyatdagi qashshoqlik, ma'rifatsizlik, va irsiy e'tiqodlarning inson hayotiga ta'sirini fosh qilinishi, bemor xotinning o'limi nafaqat shaxsiy falokat, balki butun tizimning inqirozini ifodalashi, qishloq aholisi modern shifoxonaga emas, balki sehrigar, baxshi, va xalq tabiblariga ishonishi, ularning pul talab qiladigan samarasiz usullari esa oilani qarzga botkazishi, qizchaning ona mehriga tashna holatda qolganligi yoritib berilgan.

KIRISH. “Adabiyot – ko'ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg'usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o'xshaydi- meva tugmaydi. Ko'ngil rozi bo'lgan asargina kitobxonning ko'ngliga yo'l topadi, kitobxonning ko'nglida meva tugadi... Quyosh, havo, yer, suv barcha jonivor va ko'katlarga ozuqa berganidek, xalq hayoti yozuvchiga ilhom beradi. Yozuvchi qanchalik iste'dodli, uning qalam tutgan qo'li qanchalik tajribali bo'lsa, xalq undan shunchalik chuqurroq minnatdor bo'ladi, [uning ijodini](#), umuman, adabiyotni shunchalik chuqurroq hurmat qiladi” degan fikrlarni bildirgan edi elimiz asar va hikoyalari sevib o'qiydigan, yurtimiz ardoqlagan yozuvchi Abdulla Qahhor. Abdulla Qahhor ushbu fikrlarini o'zining durdona asarlari bilan amalda isbotlagan yozuvchidir. Unda ixcham va teran fikrlash, tasvirlash qobiliyati mavjud bo'lgan. Shu sabab yozuvchining kichik hajmli hikoyalari ham o'quvchini ko'p va to'g'ri xulosalar chiqarishga undaydi. Nega desangiz, hikoya yosh kitobxon tiliga tushunarli ruhda yozilgan va o'z aqtrofiga juda kata tarbiyaviy, siyosiy hamda ma'naviy masaklarni ham qamrab olgan.

Bizga tanish bo'lgan "Anor" romani tarkibiga kiruvchi "Bemor" hikoyasi hajmi kichik bo'lishiga qaramasdan o'z ichiga ko'plab mavzularni qamrab oladi. Hikoya markazida kambag'allik, johiliyat, an'anaviy davolash usullarining samarasizligi, va modern tibbiyotga qarshi ijtimoiy to'siqlar mavzulari joylashgan. Hikoyada Sotiboldi ismli oddiy ishchining ayoli kasallanib, yotib qoladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan ayol shifoxonaga olib borilmaydi. Chunki iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi oilaning ijtimoiy imkoniyatlarini ham chegaralab qo'yadi. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan Abdug'aniboyning qo'lida xizmat qiladigan Sotiboldining puli faqatgina, tovuq bilan qonlash, chilyosin o'qitish [baxshi chaqirishgagina yetadi](#), xolos. Bu fikrlarning isboti sifatida shifoxonaning eshigudan ham kirmagan Sotiboldi kasalxona so'zini eshitganda oq podsho va izvosh surati tushirilgan 25 so'mlikning ko'z oldiga kelishini olishimiz mumkin. Nochorlik sabab ayolini kasalxonaga olib bora olmaydi, xo'jaynidan qarz so'raydi.

Asarning eng ayanchli haqiqatlaridan biri ushbu davrda faqatgina iqtisodiy emas, balki ma'naviy qashshoqlikning ham keng avj olganidir. Sotiboldi va uning oilasining tragediyasi orqali muallif jamiyatdagi qashshoqlik, ma'rifatsizlik, va irsiy e'tiqodlarning inson hayotiga ta'sirini fosh qiladi. Bemor xotinning o'limi nafaqat shaxsiy falokat, balki butun tizimning inqirozini ifodalaydi: qishloq aholisi modern shifoxonaga emas, balki sehrigar, baxshi, va xalq tabiblariga ishonadi, ularning pul talab qiladigan samarasiz usullari esa oilani qarzga botkazadi. "Yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi" iborasi ijtimoiy adolatsizlikni ramziy tasvirleydi—kambag'allar hayotining mayda tafsilotlari ham halokatli oqibatlarga olib keladi. Yoki bo'lmasam ma'naviy qashshoqlik desak ham bo'ladi. Insonlarning shifoxona va tibbiyot vositalaridan ham ko'ra shu kabi mulla, baxshilarga ishonishlari.

Hikoyani tahlil qilar ekanmiz, personajlar har turli xarakterga ega ekanligiga ham guvoh bo'lamiz. Masalan, Sotiboldi xarakterida mehr va beparvolik birga kechadi. Xotinini saqlash uchun barcha an'anaviy usullarni sinab ko'radi (tabib, baxshi, qon to'kish), lekin modern tibbiyot haqida faqat shahar shifoxonasi haqidagi noaniq tasavvurga ega ("25 so'mlik pul" ramzi). Uning harakati bejizlikka olib keladi: qarz olishi, savat to'qishga majbur bo'lishi, va nihoyat, xotinini yo'qotishi uning kambag'allik qafasidan qutula olmasligini ko'rsatadi. Yoki bo'lmasam bemor xotin personajiga e'tibor bering. Bemor xotinning og'rig'i va sustkashligi hikoyada faqat fizik azob emas, balki jamiyat tomonidan e'tibordan chetda qolgan ayolning jimjitligini ifodalaydi. Ayollarning matonat va sabri qanchalik kuchli ekanligi, joni og'rib azob cheksada uni aytmagani ifodalangan. Uning o'limi so'nggi pichirlashi ("qizimni saharlari uyg'otmang") onalik g'amini va umidsizlikni aks ettiradi.

Hikoyada ramziylik sifatida berilgan joy- shahar shifoxonasidir. Bu imorat Sotiboldi uchun “chiroyli, lekin noyob” ob’ekt—u unga kirish imkoniyatiga ega emas, chunki puli yo‘q. Shifoxona muallif tomonidan modern yechimlarning mavjud, ammo ijtimoiy tengsizlik tufayli yetib bo‘lmas joy sifatida tasvirlangan “Chilyosin” marosimi esa an’anaviy marosim oxirgi umid sifatida ko‘rsatilgan, ammo u ham bemorni qutqara olmaydi. Hikoyada bemorning kasalligi individual holat emas, balki butun jamiyat kasalligining alomatidir. Qishloq aholisi modern tibbiyot haqida to‘liq ma’lumotga ega emas, ularning e’tiqodi sehrgarlik, duo, va qadimiy amaliyotlar bilan cheklangan. Sotiboldi kambag‘allik tufayli shifoxonaga borishni ham o‘ylay olmaydi, chunki u pulni faqat o‘lim yoki hayot uchun emas, balki dafn marosimlari uchun sarflashga majbur (“chilyosin” qildirish). Muallifning tanqidiy nuqtai nazari shundaki, jamiyat mavjud muammolarni tizimli ravishda yashirish uchun an’analarga berilgan.

Xulosa qilish joizki, “Bemor” hikoyasi oddiy voqea manzarasi ortida chuqur insoniy, ijtimoiy va madaniy qatlamlarni ochib beradi. Muallif kam so‘z bilan – boy obrazlar, ramziy manzaralar orqali tibbiyot, ruhoniylar-amaliyot, kambag‘allik va, eng asosiysi, inson qalbining umid-ishtiyoqiga oid masalalarni yoritadi. Abdulla qahhor ijodining eng yutuqli tomonlaridan biri ham shudir. Chunki yozuvchining kichik hikoyalari ham tahlil qilish va tushunish uchun juda sof tilda yozilgandir. Voqealar tahlili ko‘rsatadiki, moddiy boylik kam bo‘lsa ham, qalbdagi ishonch va mehr insonni eng katta azoblardan ham kuch bilan olib o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [Abdulla Qahhor Bemor hikoyasining tahlili Abdulla Qahhor Bemor hikoyasining tahlili](#)
2. Rasulova Durdona Adham qizi, Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi tahlili.
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-bemor-hikoya>
4. Qo‘shjonov Matyoqub. Abdulla Qahhor mahorati: Monografiya. –T.: “Adabiyot va san’at”, 1988,
5. Jo‘raboyev O. Abdulla Qahhor: Shaxs va ijodkor maqolalar to‘plamimas’ul muharrir N. Jalolova. -T.: “Tamaddun”, 2013.
6. <https://kh-davron.uz>